

**“Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ tomonidan amalga  
oshiriladigan “Milliy Brend – 2025” loyihasi doirasida hamkorlik qiluvchi  
PR va Marketing agentliklariga qo‘yiladigan**

**TALABLAR**

**Agentliklarga qo‘yiladigan talablar:**

- O‘zbekistonda reklama va marketing yo‘nalishida kamida 2 yildan buyon muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelayotgan bo‘lishi;
- kamida 10 nafar (loyiha menejeri, SMM, PR, marketing mutaxassislari, dizayner, moushn dizayner, video operator, montaj ustasi) mutaxassisga egaligi;
- reklama va marketing yo‘nalishlarida davlat va nodavlat tashkilotlarga muvaffaqiyatli xizmat ko‘rsatganligi (portfolio);
- 2025-yilda 4 ta tadbirkorlik loyihasining brendini yaratishga ko‘maklasha olishi.

**Hamkor uchun taqdim etiladigan hujjatlar:**

- bo‘lajak hamkor agentlik haqida umumiy ma’lumot, davlat ro‘yxatidan o‘tganligi haqidagi guvohnoma nusxasi;
- qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik holatida emasligi haqida ma’lumotnoma;
- insofsiz ijrochilarning Yagona reyestrda qayd etilmaganligi to‘g‘risida ma’lumotnoma;
- davlat soliq organining (xorijiy yuridik shaxslar uchun boshqa vakolatli organ) soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha qarzдорligi mavjud emasligi to‘g‘risida ma’lumotnoma;
- reklama va marketing yo‘nalishlarida davlat hamda nodavlat tashkilotlarga muvaffaqiyatli xizmat ko‘rsatganligi haqida tavsifa xati.
- kamida 10 nafar xodimi mavjudligi (yoki tegishli xizmatni ko‘rsatuvchi tashkilot bilan hamkorlik o‘rnatilgani) haqida ma’lumotnoma.

Agentliklar hujjatlarini **presscenter@edcom.uz** pochta manziliga yuborishi mumkin.

Hujjatlar 2025-yil 18-yanvar 18:00 gacha qabul qilinadi. Qo‘shimcha ma’lumotlar uchun Kompaniya matbuot kotibiga +99897-141-71-44 raqami orqali bog‘lanish mumkin.

**Hamkorlik uchun tanlab olingan agentliklar bilan memorandum imzolanadi va har biriga tadbirkorlik loyihalari biriktirib beriladi.**